



O'RTA OSIYO CHO'LLANISHI VA QURG'OQCHILIKKA QARSHI
KURASHISH

COMBATING DESERTIFICATION AND DROUGHT IN CENTRAL ASIA

БОРЬБА С ОПУСТЫНИВАНИЕМ И ЗАСУХОЙ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Tanberdiyeva Dinora Fazliddin qizi

Guliston Davlat Universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasida Geografiya yo'nalishi 5-kurs
talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyo hududida cho'llanish jarayonlari va ularning asosiy sabablari ilmiy tahlil qilinadi. Hududning tabiiy sharoiti, o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi hamda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida yerlarning degradatsiyaga uchrashi ko'rsatib berilgan. Cho'llanishning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari yoritilib, unga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari-suvni tejash texnologiyalaridan foydalanish, agrotexnik tadbirlarni kuchaytirish, o'rmonzorlar barpo etish, meliorative holatni yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar taklif qiladi. Tadqiqot O'rta Osiyoda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik ta'minlash uchun cho'llanishga qarshi kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlari: Cho'llanish, qurg'oqchilik, O'rta Osiyo ekologiyasi, yer degradatsiyasi, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, ekologik muammolar, ekologik xavfsizlik, melioratsiya, o'rmonlashtirish, barqaror rivojlanish, suvni tejash texnologiyalari.

Annotation: This article provides a scientific analysis of desertification processes and their main causes in Central Asia. The article shows the degradation of land as a result of the natural conditions of the region, climate change, depletion of water resources, and the negative impact of human activity. The ecological, economic, and social consequences of desertification are highlighted, and priority areas for combating it are proposed, such as the use of water-saving technologies, strengthening agrotechnical measures, establishing forests, improving the meliorative situation, and developing international cooperation. The study substantiates the need for a comprehensive approach to combating desertification to ensure sustainable development and environmental security in Central Asia.

Ключевое слово: Засуха, Экология Средней Азии, Деградация земель, Изменение климата, Дефицит водных ресурсов, Экологические проблемы, Экологическая безопасность, Мелиорация, Лесонасаждение, Устойчивое развитие, Водосберегающие технологии.

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ процессов опустынивания и их основных причин в Центральной Азии. В статье показана деградация земель в результате природных условий региона, изменения климата, истощения водных ресурсов и негативного воздействия человеческой деятельности. Подчеркиваются экологические, экономические и социальные



последствия опустынивания, а также предлагаются приоритетные направления борьбы с ним, такие как использование водосберегающих технологий, усиление агротехнических мероприятий, создание лесных массивов, улучшение мелиоративной ситуации и развитие международного сотрудничества. Исследование обосновывает необходимость комплексного подхода к борьбе с опустыниванием для обеспечения устойчивого развития и экологической безопасности в Центральной Азии.

Key words: Drought, Central Asian ecology, land degradation, climate change, water scarcity, environmental issues, environmental security, land reclamation, afforestation, sustainable development, water-saving technologies.

O'rta Osiyo mintaqasi o'zining keskin kontinental iqlimi, kam yog'in-sochinlar va yuqori bug'lanish darajasi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda tabiiy iqlim sharoitlari va inson faoliyati natijasida yerlarning degradatsiyasi, ya'ni cho'llanish jarayoni tobora kuchayib bormoqda.

Qurg'oqchilik esa ushbu jarayonning asosiy omillaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ekologik tizimlarga katta zarar yetkazmoqda.

Cho'llanish — unumdor yerlarning o'z xususiyatini yo'qotib, cho'l hududlariga aylanish jarayonidir. O'rta Osiyoda bu hodisa bir nechta sabablar ta'sirida yuzaga keladi:

- Iqlim o'zgarishi – hududda havo haroratining ko'tarilishi, yog'in miqdorining kamayishi va qurg'oqchilikning chastotasi oshishi.

- Orol dengizi inqirozi – suv sathining pasayishi natijasida yuzlab ming gektar yerlarning sho'rlanishi, shamol orqali tuz va changlarning tarqalishi.

- Suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish – sug'oriladigan yerlarning ko'payishi, suvning isrof bo'lishi va meliorativ holatning yomonlashuvi.

- Yaylovlarning degradatsiyasi – chorva sonining ortishi natijasida yaylovlarda o'simlik qoplamini yemirilishi.

- O'rmon va o'simliklarni kesish – tuproq eroziyasining kuchayishiga olib keladi.

Qurg'oqchilik — yog'in-sochinning keskin kamayishi, suv zaxiralarining qisqarishi va yuqori harorat natijasida yerning qurib borishi holatidir. O'rta Osiyoda qurg'oqchilik:

- Sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida hosildorlikning tushishi
- Ichimlik suvi tanqisligi
- Chorvachilikka zarba berilishi
- Aholining yashash sharoitlarining yomonlashishi kabi ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi.

Cho'llanishning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari:

Cho'llanish va qurg'oqchilik quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

Tuproq unumdorligining pasayishi, sho'rlanish, botqoqlanish va qum ko'chishlari, o'simlik va hayvonot dunyosining kamayishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi — aholi resursli hududlarga ko'chib ketishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishmovchiligi va iqtisodiy zararlar.



Bu jarayonlar mintaqaning barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diradi.

Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash choralari:

O'rta Osiyoda cho'llanish jarayonini kamaytirish uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

1.Suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish,

Tomchilatib sug'orish, lazerli yer tekislash kabi usullar suv isrofini keskin kamaytiradi.

2.Melioratsiya va drenaj tizimlarini yaxshilash,

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishini oldini oladi, ekinlar uchun qulay sharoit yaratadi.

3.O'rmonzorlar barpo etish va ko'kalamzorlashtirish,

Shamol eroziyasini kamaytiradi va tuproqni mustahkamlaydi. Orol bo'yida "yashil bog'" barpo etish ishlari bunga misoldir.

4.Yaylovlardan oqilona foydalanish, chorva sonini nazorat qilish, almashlab yaylovga chiqarish tabiatni tiklaydi.

5.Iqlim o'zgarishiga moslashuv strategiyasini ishlab chiqish

Davlat siyosati va xalqaro hamkorlik orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkin.

O'rta Osiyoda cho'llanish va qurg'oqchilik — ekologik va ijtimoiy sohalarga ta'sir etuvchi eng yirik muammolardan biridir.

Bu jarayonlarni oldini olish uchun davlat, ilmiy muassasalar, xalqaro tashkilotlar va jamiyatning hamkorligi talab etiladi. Suv resurslarini oqilona boshqarish, meliorativ tadbirlarni kuchaytirish va o'rmonlashtirish mintaqa uchun eng samarali yechimlardan hisoblanadi.

Faqat kompleks yondashuv va uzoq muddatli strategiya orqali O'rta Osiyoda ekologik barqarorlik va kelajak avlodlar uchun sog'lom tabiiy muhitni ta'minlash mumkin.